

PRUNELLA VULGARIS L. NING MORFOBIOLOGIK XUSUSIYATLARI**Yuldosheva Gulshoda Ergash qizi****Haydarov Xislat Qudratovich***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya: Maqolada *Prunella turkumiga mansub Prunella vulgaris L* ning yer yuzida tarqalishi, morfologiyasi manzarali va dorivor xususiyatlariga oid hamda ushbu o'simlikning dunyo bo'ylab va respublikamiz hududlarida tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Yalpizdoshlar, Lamiaceae, Prunella, P. vulgaris, flora, areal, sistematika, dorivor, manzarali, ko'p yillik.*

МОРФОБИОЛОГИЧЕСКОЕ ОСОБЕННОСТЬ PRUNELLA VULGARIS L.

Аннотация: В статье приводятся данные о морфологии, декоративных и лечебных свойствах *Prunella vulgaris L* рода *Prunella*. Где на карта отражены места распространения данного вида растения во всем мире и на территории нашей республики

Ключевые слова: *Мятликовые, Lamiaceae, Prunella, P.vulgaris, флора, ареал, систематика, лекарственный, декоративный, многолетний.*

MORPHOBIOLOGICAL FEATURES OF PRUNELLA VULGARIS L.

Abstract: The article provides information on the distribution morphology ornamental and medicinal properties of *Prunella vulgaris L* belonging to the *Prunella* family, During the survey maps of this plant around the world and in the regions of our country are displayed

Key words: *Mintsceae, Lamiaceae, Prunella, P. vulgaris, flora, area, systematics, medicinal, ornamental, perennial.*

KIRISH

Bugungi kundagi eng dolzarb muammolar qatoriga ona tabiatimizga bo'lgan munosabatni qayd qilib qo'yish joiz. Atrofimizdagi olamning qariyb 80% ini o'simliklar florasi tashkil qiladi. Zamonamizning shiddat bilan rivojlanib borishi, antropologik munosabatlar eko-salohiyatining keskin suratlarda o'sishi natijasida gektarlab ochiq maydonlarda, tog'larda yaylov va adirlarda ona tabiatimiz chiroyiga yanada joziba baxsh etib turgan ko'plab o'simliklarning tabiiy areallari keskin ravishda qisqarib bormoqda. Bunday muammoning kuchayib borishi natijasida ayrim o'simlik turlari faqatgina gerbariyalarda saqlanib qolmoqda lekin bu ushbu o'simliklarning yana tabiatga qaytishiga yordam berolmaydi.

Respublikamizda ham dorivor o'simliklarni tarqalishi, morfalogik va anatomik tuzilishi, tabiiy resurslari hamda farmatseftika sanoatidagi o'zni borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ 4670-sonli «Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2020-yil 26-noyabrdagi PQ 4907-sonli «Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ularning ko'paytirishni yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga shuningdek, dorivor o'simlik turlarini ko'paytirish tabiiy resurslarni monitoring qilishga va hom-ashyobop tabiiy dori vositalarini ishlab chiqarishga katta etibor qaratilmoqda.

Prunella vulgaris L. ildizi o'q ildiz va ildizpoyali o'simlik asosiy o'q ildizda yon ildizchalar chiqqan va ildizpoyali deyilishiga sabab poyalarida bug'um oralig'ida yerga yaqin qismida qo'shimcha ildizlari bor vegetativ ko'payadi ko'p yillik o'simlik hisoblanadi qish faslida ham o'z vegetatsiyasini davom ettiradi Poyasini uzunligi 10-40 sm gacha bazan 50 sm gacha ham o'sishi mumkin bir oz shoxlangan rangi qong'ir rangda bo'ladi va bo'g'imlarga bo'lingan pastki bo'g'imlar yon qo'shimcha ildizlari chiqqan va poyada barglari har bir bo'g'imda qarama-qarshi joylashgan. Generativ poyasida juda ko'p miqdorda zich joylashgan mayda tepaga qaragan tukchalari bor bo'lib, ya'ni yosh poyalari tukchalar bilan qoplangan poyasi kech kuzda qurib qoladi ammo qish fasli iliq kelgan yillarda o'z vegetatsiyasini tugatmaydi ya'ni yerdan 5 sm balandlikda yashil barglari o'sib turadi bargi poyada bog'imlarida qarama-qarshi joylashgan bo'lib, shakli tumtoq tuxumsimon yoki uzun tuxumsimon shaklda qishki barglari yuraksimon shaklda yozgi bargiga nisbatan qishki barglari qalin boladi, chetlari bo'laklarga bo'linmagan bitta bandga ega bandi tukchalar bilan qoplangan qish iliq kelgan yillarda barglari sekinlik bilan o'sib turadi urug'larning shakli ellipssimon bo'lib ustki qismi tukchalarsiz silliq urug'ining kattaligi 2 mm rangi och jigarrangda, ustki tomonidan to'q rangdagi chiziqlar o'tgan. Iyul avgust oylarida meva hosil qiladi va sentabr oyida pishib yetiladi.

P.vulgaris L. ni geografik tarqalishi: Markaziy Osiyo, Yevropa, Osiyo, Shimoliy Afrika, Avstraliya, Shimoliy Amerika, shu kabi yerlarda tarqalib shundan Markaziy Osiyoda Qazag'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonning Panjikent shahri qushtut, Sudjena, Zarafshon daryosi bo'yida va Zarafshon tog'lari, O'rmiton qishloq yaqini soylarida va g'arbiy Tianshan, Angeren daryosi, Kelinchak soy qishloq yaqinlarida Samarqand shahri Nomozgoh atrofidagi ariq yoqalarida tarqalgan, Urgut tumani hamda Samarqand shahri yaqinlarida ham uchraydi.



1-rasm. *P.vulgaris* L. ni gul va barglari

Kimyoviy tarkibi: Karbon suvlar saxaroza, galaktoza, glukoza, fruktoza va olma kislotasi bor. Steroidlardan dovli kashterin, saponinlardan finol karbon kislotalar, oshlovchi moddalar (duben) dekumarinlar, flavonoidlar, rutin, geporozid antotsianlar uchraydi. Kam miqdorda efir moylari, seskeptronoidlar, tritepreomoidlar, ursol kislota 0,44 olridoidlar. Steroidlar-B sttoserin 0,06-0,14. Vitaminlar: C, karotin, B-karotin 2 ta A vitaminlar mavjud. Fenol karbon kislotalar va ularning hosilalari, kofeoilin xlorogen nevoxlorogen, ro'zmarin 4,49% oshlovchi moddalar 7-9%, kumarinlar 0,26-0,4% flavonoidlar 0,4-2% rutin, geparin, izokversetin, kempferol. Antosianinlar sianedinlarning deffinidenlar hosilalari, pellorgonidan yuqori molekullari yog' kislotalari, oktodetsen-3 kislotasi, penoidlar, olerinlar va ureal kislotalari. flavonoidlar kvarsed bargi va gullarida efir moylari 0,5 % uning, tarkibida kamfora fenxonol, saponinlari, oshlovchi moddalar 9-7% flovonoidlar 0.5% gacha uchraydi. Guloldi, triterpienoidlar, oshlovchi moddalar, flavonoidlar bor. Gulkosasida vitamin-C, flavonoidlar, urug'ida yog' 3,16% gacha uchraydi.

Vetnam tibbiyot amaliyotida frunkulyozni, Koreya tibbiyoti amaliyotida devritik kasallikni ya'ni moddalar almashinuvi buzilganda va shamollashda, siydik pufagi va siydik yo'llari shikastlanganda limfomani, surunkali arteridni gepertonik kasalliklarini davolashda foydalaniladi.

Xalq tabobatida uning damlamalaridan dermatoz, mikrozo, paylar shikastlanishida yarani davolashda ishlatiladi. Gingivid va sengada esa og'iz bo'shlig'ida chayishda ishlatiladi. Tajribada isbotlangan uning damlamasi gipotenziv ta'sir beradi. Nastoy damlamasi efirli ekstraktlar kumarin, triterpenoidlar, saponinlar, fenokarbol kiskotalari, kemferol, kversetin, geterozit, cofe kislotalari yig'indisidan iborat, Ular antefutol faollikka ega, xususan ular orasida fenolkarbon kislotalari eng faol hisoblanadi. Ildiz qismi ayollar kasalliklarida damlamasi esa oshqazon-ichak yo'lidagi jarayon uchun so'ruvchi va tish og'riqlarda Hind tabobatida spazmatik qon tomir rad qilishni yuzaga keltiruvchi qon tomirlar tonusini oshiruvchi sifatida revmatizm davolashda foydaniladi gomapatiyada haroratni pasaytiruvchi

shamollashni oldini oluvchi qayd qilishni to'xtatishda foydaniladi xalq tabobatida (atvor-ildiz) ildizini qaynatmasi angina branxitda o'tkir resperator infeksiyalarda tomoq va o'pka tuberkulyozda, geperterlozda, defteriyada, gastireyalozda, metorizmda, dezenteriyada, diareyada, epelepsiyada, bosh aylanishda, ayol kasalliklarda, gipertonok kasalliklarda, qandli diabetda, buyrak kasalliklarda, saroton kasalliklarda, ishtaxani oshirishda foydaniladi. Ich ketishda, tug'ushdan keyingi qon ketishni to'xtatishda gomostatik vosita sifatida foydanilsa tamoq yallig'lanishlari, stomatit, singa kasalliklarda og'iz chayqash uchun foydalanib uning qaynatmasidan saborella kasalliklarda bosh yuvishda ishlatiladi Novda va bargi Xitoy tabobatida qaynatmasidan teri tuberkulyozi ayol kasalliklarda teritoksikoz, ekcedativ diatez, revmatik poliarteritdlarni davolashda surtmalar tarkibiga qo'shiladi. Barglari yangidan uzulganda Hind tabobatida gemoroyini davolashda ishlatiladigan surtma tarkibiga qo'shiladi uzoq sharqda antiseptik sifatida foydaniladi. Kanadada haroratni pasaytirishda ishlatiladi Gullari Xitoy tabobatida damlamasidan xaroratni pasaytiruvchi va siydik xaydovchi duvretik vosita sifatida foydaniladi mevalari Xitoy tabobatida gepertonik va nefrit kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Gullari asal tutuvchi hashoratlarni jalb qiluvchi uning nektor tutish maxsuloti 90kg/ga ni tashkil qiladi. Bu o'simlikdan chorva mollari uchun yem xashak sifatida ham foydalanish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Петрова Н В Буданцев А Л Медвеева Н А Шаварда А Л Сезонная динамика накопления кофейной, розмариновой, урсоловой и олеановой кислот в листьях *Prunella vulgaris* (Lamiaceae) \\ Растительные ресурсы Т 51 2015 выи 3 С 420-426.
2. Мамаев С. Н. О сновы проблемы исследования внутривидовой изменчивости растений Флора и внутривидовая изменчивость растений Урала. Свердловск 1985. С. 3-8.
3. Алексеева Л И Болотник Е В Розмариновая кислота и антиоксидантная активность *Prunella grandiflora* и *Prunella vulgaris*(Lamiaceae) \\ Растительный мир Азиатской России 20 N 1 С 121-125.
4. Колаковский А. А. Флора Абхазии. Т. П. Тбилиси Мецниереба 1982. 282с.
5. Определитель высших растений Крыма Л. Наука 1972. 549 с.